

TASVIRIY SAN'AT FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Shokirova Shahodat Olim qizi

Qarshi shahar 9-son Bolalar musiqa va san'at maktabi Tasviriy san'at fani
o'qituvchisi Shahrishabz Davlat Pedagogika Instituti

Magistratura bo'limi San'atshunoslik kafedrasi Muhandislik grafikasi va dizayn
nazariyasi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola talabalarning tasviriy san'at fanidan auditoriyada va
auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'lif turlari, vositalari va vazifalari, uning tashkil
etish va boshqarish metodlariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: mustaqil faoliyat, tasviriy san'at, auditoriya, metod, vositalar,
ko'rgazma, plener.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена видам самостоятельного обучения, производства
и производства изобразительного искусства учащихся в аудитории и вне
аудитории, ее организации и методам управления.

Ключевые слова: самостоятельная деятельность, изобразительное
искусство, аудитория, прием, оружие, выставка, пленэр.

ABSTRACT

This article is devoted to the types of independent education, production and
production of visual arts students in the auditorium and outside the auditorium, its
organization and management methods.

Keywords: independent activity, fine art, audience, method, weapon, exhibition,
plein air.

KIRISH

O'zbekistonda oliy ta'lif tizimini takomillashtirish asosi O'zbekiston
Respublikasining "Ta'lif to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi
to'g'risida"gi qonunlari hisoblanadi. Ular yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga ega
bo'lgan, ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda harakat qila
oladigan, kelajakka qaratilgan vazifalarni qo'ya olish va ularni yechishga qodir bo'lgan
kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan. Mustaqil ta'lif - muayyan
fan dan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim

bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishni, o‘zlashtirish darajasini amalgalashiriladigan ta’lim shakllaridan bo‘lib, o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida bajariladi. Davlat ta’lim standarti talabiga binoan bilimlarni mustaqil ravishda izlanib o‘rganish vazifasi hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biridir.

Mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarini takomillashtirish shuningdek, auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘tiladigan mashg‘ulotlar talaba -yoshlarning yetuk ijodkor bo‘lib voyaga yetishishlarida yetarli emasligini e’tiborga olib, ularni ko‘proq mustaqil ta’lim olishi, mustaqil ijod qilishiga o‘rgatish muhimdir. O‘qish jarayonida mustaqil ta’limni quyidagi ikki guruxga bulish mumkin:

- 1.auditoriyadagi mustaqil ta’lim
- 2.auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ta’lim.

Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ta’limda talabalar pedagoglar tomonidan berilgan topshiriqlarni o‘qituvchining ishtirokisiz bajaradilar. Mustaqil ta’limning samarali bulishi uchun quyidagi usul va vositalardan foydalanish maksadga muvofiq:natyurmortlar chizish, etyud, nabroskalar chizish, guruhi bilan birgalikda plenerlarga chiqish, suxbat, baxs, toifalash jadvali, pinbord, insert, «Bilaman, bilishni xoxlayman, bilib oldim» jadvali, T-jadval, Venndiagrammasi, «Nima uchun?», baliq skeleti va boshkalar.

Auditoriyadan tashkarida bajariladigan mustaqil ishlari quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarga tayyorgarlik;
- o‘quv rejadagi fanlarning ma’ruza mashg‘ulotlarida o‘rganilmaydigan mavzularini mustaqil o‘rganish;
- internetdan kerakli ma’lumotlarni izlab topish;
- kurs ishlari, kurs loyixalari, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarni tayyorlash;
- axborot-resurs markazi katalogi orqali mustakil ravishda adabiyotlarni izlash;
- rassomlar hayoti va ijodi haqidagi o‘quv audio yozuvlarini eshitish, video-materiallarni kurish;
- plenerlarga chiqish etyudlar chizish
- o‘rganilayotgan janrlar,turlar,asarlar buyicha darslik, o‘quv qullanmalarni o‘rganish;
- nabroska va natyurmortlar chizish;
- nazorat ishlarini bajarish;
- mavzular buyicha dokladlar, referatlar va esselar yozish;
- seminar va konferensiyalarda ma’ruza qilishga tayyorgarlik qilish;

- amaliy mashg‘ulotlarda berilgan natyurmortlar va kompazitsiyalarni chizishga tayyorlanish;
- o‘quv materiallarini tizimli o‘rganish maqsadida rassomlar asarlaridan nusxalar chizish;
- o‘rganilayotgan mavzular buyicha aloxida talaba yoki bir gurux talabalar ko‘rgazmalar tayyorlashi;
- mustaqil o‘rganilayotgan savollarni konspektlash;
- ma’ruzada olingan bilimlarni mustaxkamlash maqsadida testlar yechish;
- ijodiy va ilmiy ishlarni bajarish;
- talabalarning tugarklarda ishtirok etishi;
- tanlovlар va olimpiadalarda qatnashish;
- grafik ishlarni bajarish;
- joriy, oralik va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik kurish;
- monografiyalarni konspektlash.

Amaliy mashg‘ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq va mustaqil ishlarni mashg‘ul o‘qituvchi va guruh o‘quvchilari o‘rtasida himoya qila bilish hisoblanadi. hamma texnologiyalar ham tasviriy san’at darslariga to‘g‘ri kelavermaydi. Tasviriy san’at darslarida shunday texnologiyani qo‘llashimiz kerakki, bu texnologiya darsga xalaqit bermasin, balki uning samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirib, bilim olish jarayonini tezlashtirishga ko‘mak bersin.

1. Mustaqil faoliyat manbalari:
2. adabiyotlar (metodik, ilmiy-ommabop, badiiy va boshqalar);
3. Internet manbalari;
4. televide niye;
5. gazeta, jurnallar;
6. video,
7. pullik kurslar;
8. malaka oshirish kurslari;
9. seminarlar va anjumanlar;
10. tajriba almashish bo‘yicha tadbirlar va tanlovlar;
11. master-klasslar;
12. kasbiy, ilmiy, tasviriy san’at to‘garaklari;
13. teatrlar,
14. ko‘rgazmalar, muzey, konsertlar;
15. ekskursiya, sayohatlar.

Mustaqil ta’limni tashkil etishda talabalarning aqliy rivojlanishiga kompazitsion fikrlashiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni

shakllantirish ustuvor yonalish sanaladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda talabalarning mustaqil talimini to‘g‘ri tashkil qilish va boshqarish mexanizmlari to‘liq ishlab chiqilmagan. Dars jarayonida o‘qituvchi har bir talaba bilan individual ishlab, ularga yutuq va kamchiliklari haqida tushuncha berib boradi. Agar o‘qituvchi o‘zi chizgan asarlarini ko‘rgazmali quroq sifatida ko‘rsatishi yoki doskaga berilgan mavzuni amalda bajarib ko‘rsatishi, bu talabadagi tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishni oshirishda juda katta ta’sir ko‘rsatadi va mustaqil bajarib ko‘rishga turtki bo‘ladi. Talabalar tasviriy san’at darslariga qiziqishlari tufayli, ko‘rsatilgan mahorat daslaridan ilhomlanib, ranglar bilan qanday ishslash, ularni o‘z o‘rnida qo‘llash, ranglarning o‘zaro uyg‘unligi, qarama-qarshiligi (kontrastlik) xususiyatlaridan to‘g‘ri foydalanish kabi tushunchalarga ega bo‘ladilar va chizishni yaxshi o‘zlashtirgan holda mustaqil bajarishga harakat qiladilar. Talabalar ko‘proq ijod mustaqil ijod qilishi orqali katta ma’naviy ozuqa oladi, ayniqsa uning mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. Bu jarayonda talabadagi harakat, ko‘rish, sezish kabi miyaning tashqi taasurotlarni qabul qilib oluvchi va tahlil qiluvchi tizimlari (analizatorlar) ham faol ishlay boshlaydi. Bundan tashqari mustaqil ijod qilish orqali talabada diqqatini jamlay olish, vaziyatni tahlil qilish va to‘g‘ri baholash, o‘ylab topish va tasavvur qilish, ko‘rish xotirasi, kabi xislatlarini shakllantiradi. Ijod barcha moddiy va ma’naviy ne’matlar o‘chog‘i - inson hayotining asosi hisoblanadi.

Mustaqil faoliyat manbalari talabaning ham shaxsiy, ham kasbiy o‘sishiga yo‘naltiriladi.

Mustaqil faoliyat natijalari (talaba uchun):

- fanni o‘zlashtirish sifati oshadi;
- nashr etilgan metodik qo‘llanmalar, maqolalari, darsliklar, dasturlar va shu kabilarni tahlil qilishi; o‘qitishning faol shakllari, metodlari va uslublarida ishtirok etishi;
- tanlovlari, ko‘rgazmalarga ishtirok etishga ;
- turli seminar, anjumanlarda (ma’ruzalar) qatnashishi;
- ijodiy va kompazitsion fikrlashni shakllantirishga ;
- didaktik materiallar, testlar foydalanish malakasi oshadi;
- ijod qilishga undaydi.
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalar bo‘yicha ma’lumotlar oladi;
- Mustaqil faoliyat natijalari (o‘qituvchi uchun):
 - fanni o‘qitish sifati oshirishi;
 - nashr etilgan darslik, o‘quv qo‘llanma hamda metodik qo‘llanmalar, maqolalar, va shu kabilar tahlili;
 - o‘qitishning faol metodlarini ishlab chiqish;

- turli seminar, anjumanlar tanlovlarda, ko‘rgazmalarda va tadbirlarda qatnashishi va qatnashgan boshqa ishtirokchilar ishlarini tahlil qilishi, yutuqli tomonlarini dars jarayoniga tadbiq etishi;
- dars o‘tish uchun didaktik materiallar, ta’limiy testlar, ko‘rgazmali quollar va plakatlar, ishlab chiqish;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalarni tahlil qilish hamda ishlab chiqish;
- shaxsiy novatorlik texnologiyalari bo‘yicha ochiq mashg‘ulotlar ishlab chiqish va o‘tkazish;

Ma’lumki, talabalar mustaqil faoliyatining asosiy qismi ularning mustaqil ishlarini bajarishi yotadi.

XULOSA

Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi – talabada o‘quv, ma’naviy ishlarini mustaqil bajarishda kerak bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni tashkil topishi va rivojlanishi. Talabalar mustaqil ishi uchun belgilangan vaqt byudjetiga binoan kafedralarda barcha predmetlardan tashkiliy formalar, mustaqil ish variantlari va mustaqil bajarish topshiriqlari ishlab chiqiladi, ular fakultetning ilmiy – metodik kengashida hamda kafedra yig‘ilishlarida tasdiqlanadi. Talabalar mustaqil ishi metodik ta’minlanishni tematikasi va shakllari ro‘yxatini tuzish uchun har birini maqsad va vazifalarini ifodalab berish, yo‘riqnomalar yoki metodik yo‘llanmalar ishlab chiqish va ilmiy adabiyotlarni tanlash deganidir. Mustaqil ta’limni tashkil etish orqali, har tomonlama yetuk, bilimli, mustaqil fikrlay oladigan va ijod qila oladigan, izlanuvchan avlodni shakillantiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Muslimova, A.F. O‘z-o‘zini takomillashtirishga va ijodiy o‘zini namoyon qilishga intilishlarni rivojlantirish / A.F. Muslimova // O‘rta maxsus kasb ta’limi. - 2010 yil - № 4.
2. Talabalarning mustaqil ishlarini boshqarish: uslub. nafaqa / general ostida. tahrirlangan I.P. Cho‘pon, T.G. Argunova. - M.: "O‘zR DPI" jurnali kutubxonasi, 2010 yil.
3. R.Xasanov , Tasviriy san’at asoslari – G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matba – ijodiy uyi 2009.
4. Mirsoliyeva. M, Ibragimova g- Ta’lim texnalogiyalari va pedagogik mahurat 2015